Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	



UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Odilov Umid Abduxalimovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

e-mail: umid_odilov@tues.uz

ORCID: [0009-0005-3171-6014](https://orcid.org/0009-0005-3171-6014)

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari doirasida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oilaviy tadbirkorlik hamda chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirishga oid qarorlarining mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyati tizimli tahlil qilingan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar asosida uy xo'jaliklarida chorvachilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlash, subsidiyalar ajratish, lizing va sug'urta mexanizmlarini joriy etish hamda moliyaviy institutlar ishtirokini kengaytirish yo'nalishlari yoritib berilgan. Maqolada uy xo'jaliklari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, aholining bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda moliyaviy mexanizmlarning roli asoslab berilib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: uy xo'jaliklari, chorvachilik mahsulotlari, oilaviy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi moliyasi, aholi bandligi.

Abstract. This scientific article examines the issues of improving financing mechanisms for livestock product production within households in the Republic of Uzbekistan. The study provides a systematic analysis of the content, essence, and practical significance of the decisions of the President of the Republic of Uzbekistan aimed at the development of family entrepreneurship, the livestock sector, and its related branches. Based on these regulatory and legal documents, the article highlights directions for supporting livestock activities in households, implementing concessional lending, allocating subsidies, introducing leasing and insurance mechanisms, and expanding the participation of financial institutions. The role of financial mechanisms in ensuring the sustainable development of household livestock production, increasing employment, and raising household incomes is substantiated, and scientific-practical recommendations and conclusions for improving these mechanisms are developed.

Key words: households, livestock products, family entrepreneurship, agricultural finance, employment.

Аннотация. В данной научной статье исследуются вопросы совершенствования механизмов финансирования производства животноводческой продукции в рамках домашних хозяйств в Республике Узбекистан. В исследовании системно проанализированы содержание, сущность и практическое значение решений Президента Республики Узбекистан, направленных на развитие семейного предпринимательства, животноводческой отрасли и ее смежных направлений. На основе указанных нормативно-правовых документов в статье освещены направления поддержки животноводческой деятельности в домашних хозяйствах, внедрения льготного кредитования, предоставления субсидий, применения лизинговых и страховых механизмов, а также расширения участия финансовых институтов. Обоснована роль финансовых механизмов в обеспечении устойчивого развития производства животноводческой продукции в домашних хозяйствах, повышении уровня занятости населения и росте доходов, а также разработаны научно-практические предложения и выводы по их совершенствованию.

Ключевые слова: домашние хозяйства, животноводческая продукция, семейное предпринимательство, финансы сельского хозяйства, занятость населения.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari hajmini ko'paytirishda uy xo'jaliklaridan samarali foydalanish, aholi ihtiyoridagi chorvachilik va uning tarmoqlarini rivojlantirish asosiy masalalardan biri. Buning asosiy sababi chorva mollari soni asosiy qismi aholi qo'lida bo'lib, bu sohani uy xo'jaliklarida chorvachilik va uning tarmoqlarini rivojlantirishmasdan belgilangan vazifalarga erishib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini kengaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda uy xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Uy xo'jaliklari chorvachilik faoliyati, bir tomondan, aholining kundalik iste'molini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kengayishiga zamin yaratadi. Mazkur yo'nalishning barqaror rivojlanishi, avvalo, samarali va zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarining mavjudligi bilan chambarchas bog'liq.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli institutsional va normativ-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3777-sonli, PQ-55-sonli va PQ-120-sonli qarorlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish, imtiyozli kreditlar va moliyaviy ko'mak mexanizmlarini joriy etish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu qarorlar uy xo'jaliklarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda barqaror daromad manbalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi[1,2,3].

Shu bilan birga, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan PQ-5017-sonli, PQ-149-sonli va PQ-34-sonli qarorlarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, naslchilik bazasini mustahkamlash, yem-xashak ta'minotini yaxshilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda sohani moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur hujjatlar uy xo'jaliklari darajasida chorvachilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi[4,5,6].

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish samaradorligi, ularning uy xo'jaliklari ehtiyojlariga mosligi hamda moliyaviy institutlar ishtirokining yetarli darajada emasligi mazkur sohada ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu munosabat bilan uy xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur ilmiy tahlil qilish, ularni takomillashtirish yo'llarini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etilgan qarorlari asosida uy xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlarining amaldagi holatini tahlil qilish hamda ularni yanada samarali va barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada uy xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini ilmiy asosda o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning normativ-huquqiy bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy tahlil usuli qo'llanilib, mazkur qarorlarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari, ularda nazarda tutilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, lizing, sug'urta va davlat kafolatlari) tizimli ravishda o'rganildi. Tizimli yondashuv asosida oilaviy tadbirkorlik va chorvachilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning o'zaro bog'liqligi hamda uy xo'jaliklari faoliyatiga ta'siri tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda taqqoslama tahlil usuli orqali amaldagi moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi baholanib, qarorlarda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar bilan real natijalar o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Iqtisodiy-statistik tahlil usullari yordamida uy xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari, moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi hamda bandlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Bundan tashqari, induktiv va deduktiv mantiqiy tahlil, abstrakt-mantiqiy umumlashtirish hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilib, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuvlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolada foydalangan adabiyot sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi PQ-3777-sonli, PQ-55-sonli, PQ-120-sonli, va chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha PQ-5017-sonli, PQ-149-sonli va PQ-34 sonli Qarorlari foydalanilgan. Bu qarorlar orqali uy xo'jaliklari va aholi honadonlarida oilaviy tadbirkorlik va chorvachilik mahsulotlari etishtirishning huquqiy asoslari, bu sohani rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'alikni qisqartirish masalalarda davlat dasturi ijrosini ta'minlash, ishsiz aholi bandligini ta'minlashda moliyaviy va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, chorvachilikda to'laqonli foydalanmayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish masalalariga echim berilgan. Shuningdek chorvachilikda naslli mollarni, chorvachilik mahsulotlarini etishtirishda foydalaniladigan asbob-uzkuna, qishloq xo'jaligi texnikalarni teimport qilishda imtiyoz va imkoniyatlar haqida to'laqonli ma'lumot berilgan.

Turotova N. 'O'zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik' Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning roli, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari, oilaviy tadbirkorlik sohaning rivojlanishidagi asosiy omillarni va mavjud qiyinchiliklarni o'rganishga qaratilgan. Tahlil natijalariga asoslanib, sohani rivojlantirish yo'llari haqida xulosalar keltirilgan.

Xasanov I.M "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari" Maqolada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda "Har bir oila –tadbirkor" Davlat dasturi asosida olib borilayotgan islohatlar, oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi, qabul qilingan dastarning amalda bajarilishi va oilaviy tadbirkorliklarga yaratilayotgan imkoniyatlar natijasi haqida ma'lumotlar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda chorvachilik sohasini umumiy ishlab chiqarish hajmini tahlil qilish orqali chorvachilik va uning tarmoqlaridagi asosiy chorva va parranda aholi ihtiyorida bo'lib asosiy maqsad ushbu sohani iqtisodiy tahlil qilib uning samaradorligini oshirishdir.

1-jadval. Chorvachilik mahsulotlari hajmi mlrd so'm (yillik) 2019-2024-yillar¹

Hudud	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	104378,3	126391,8	151285,1	167229	202335,3	221547,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4260,2	5241,9	6111,4	6861,6	8293,6	9188,8
Andijon viloyati	7760,4	9384,9	11635,3	13213,5	16421,7	17847,6
Buxoro viloyati	9719,1	12229,4	14429	16019,2	19317,5	21146,9
Jizzax viloyati	8213,3	10035,8	12708,5	13430,5	16342,9	17553,1
Qashqadaryo viloyati	11955	14541,5	16943,6	18974,3	23548,8	25852,5
Navoiy viloyati	6025,7	7320,6	9584	9884,6	11869,9	13077,8
Namangan viloyati	6488,4	8094,5	9243,8	10279,5	12371,7	13720,5
Samarqand viloyati	12934,1	14690,3	17625,8	18956,1	22694,8	25121
Surxondaryo viloyati	8125,7	9727,8	11244,4	12792,3	15971,3	17346,6
Sirdaryo viloyati	3046,4	3577,6	4188,5	4651,8	5692,5	6507,6
Toshkent viloyati	10419,9	13044,1	15572,9	16727,4	20347,5	21990,3
Farg'ona viloyati	7847,9	9551,2	11335,7	12970,4	15199,8	16655
Xorazm viloyati	7582,2	8952,2	10662,2	12467,8	14263,3	15540,1
Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2019–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror va yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan. Xususan, respublika bo'yicha umumiy hajm 2019-yildagi 104 378,3 mlrd so'mdan 2024-yilda 221 547,8 mlrd so'mga yetib, qariyb 2,1 barobar oshgan. Bu chorvachilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini ko'rsatadi.

¹ Manba O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



Shuningdek hududlar kesimida ham deyarli barcha viloyatlarda ishlab chiqarish hajmining uzluksiz o'sishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Toshkent viloyatlari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi hududlar hisoblanadi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 11 955 mlrd so'mdan 2024-yilda 25 852,5 mlrd so'mga yetib, eng yuqori mutlaq o'sish ko'rsatkichlaridan birini namoyon etgan. Andijon, Jizzax, Namangan, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida ham chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi izchil oshib borgan bo'lib, bu hududlarda uy xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklari faoliyatining yuqori ulushi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida ishlab chiqarish hajmi boshqa hududlarga nisbatan pastroq bo'lsa-da, ushbu viloyatlarda ham ikki barobarga yaqin o'sish sur'atlari qayd etilgan.

Umuman olganda, uy xo'jaliklari va oilaviy tadbirkorlik subyektlari O'zbekistonning barcha hududlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sib borishi eng asosiy omil ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng yuqori bo'lgan Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlari bo'lib, o'rganish natijasida eng ko'p aholi xonadonlari ham ayni viloyatlarda joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro viloyati va Navoiy viloyatlarida chorvachilik uchun yaylovlar nisbatan ko'p bo'lsada chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kam.

Bu ma'lumotlar shuni anglatadiki O'zbekiston Respublikasida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uni ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan yaylovlarga emas, uy xo'jaliklar soni va chorva maxsuldorligiga bog'liq. Shu sababli biz quyida uy xo'jaliklarida etishtiriladigan chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'rganamiz.

2-jadval. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlarining ulushi mlrd so'm (yillik) 2019-2024-yillar²

Hudud	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	95186,7	116222	137708,1	149276,9	177757,7	193998,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4010,4	4900,5	5641,8	6301	7599	8431,6
Andijon viloyati	7121	8578,1	10250,3	11532	14304,4	15404,4
Buxoro viloyati	9032,3	11392,7	13270,7	14351,2	16987,3	18363,3
Jizzax viloyati	7941,2	9638,6	12036	12604,7	15102	16292,4
Qashqadaryo viloyati	11445,4	13857,7	16199	17945	22000,7	24038,3
Navoiy viloyati	5522,6	6648,3	8563,1	8453,2	10179,3	11215,3
Namangan viloyati	5839,6	7260,3	8260,5	8920,4	10329,1	11454,3
Samarqand viloyati	11163,5	13153	15654,9	16213,1	19290,6	21257,6
Surxondaryo viloyati	7565,5	9027,3	10297	11655,1	14456,3	15688,4
Sirdaryo viloyati	2824	3385,1	3801	4143,3	5016,1	5613
Toshkent viloyati	8451	11292	13456,7	14007,5	15953	17383,1
Farg'ona viloyati	7116	8637,1	10202,1	11606,8	13428,3	14607,1
Xorazm viloyati	7171,3	8456	10078,1	11516,6	12987,6	14095,8
Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0

O'zbekiston Respublikasida 2019–2024-yillar davomida dehqon va tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi barqaror va yuqori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, respublika bo'yicha ushbu ko'rsatkich 2019-yildagi 95 186,7 mlrd so'm adan 2024-yilda 193 998,3 mlrd so'mga yetib, qariyb 2 barobar oshgan. Bu holat chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining yetakchi rolini tasdiqlaydi. Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Toshkent viloyatlari dehqon va tomorqa xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Xususan, Qashqadaryo viloyatida mazkur ko'rsatkich 2019-yildagi 11 445,4 mlrd so'mdan 2024-yilda 24 038,3 mlrd so'mga yetib, eng yuqori mutlaq o'sish qayd etilgan. Shuningdek, Andijon, Jizzax, Namangan, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida ham dehqon va tomorqa xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi izchil oshib borgan. Bu hududlarda uy xo'jaliklari chorvachilik faoliyatining an'anaviy va iqtisodiy jihatdan muhim yo'nalish ekanligini ko'rsatadi. Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida ishlab

2 Manba O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



chiqarish hajmi nisbatan pastroq bo'lsa-da, tahlil qilinayotgan davrda bu hududlarda ham sezilarli o'sish sur'atlari kuzatilgan. Bu esa mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samaraliroq foydalanilayotganini anglatadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari dehqon va tomorqa xo'jaliklarining O'zbekiston chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi asosiy ishlab chiqaruvchi subyektlar ekanligini, ularning hissasi yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu holat uy xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlash va subsidiyalash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi. O'zbekistonda chorvachilik sohasini umumiy ishlab chiqarish hajmini tahlil qilish natijasida shu ma'lum bo'ldiki chorvachilik va uning tarmoqlaridagi asosiy chorva va parranda aholi ihtiyorida bo'lib umumiy ishlab chiqarish hajmining 87.5%ni tashkil etadi. Bu esa O'zbekistonda uy xo'jaliklari O'zbekistonda chorvachilik sohasida asosiy o'rinni egallab, maqsad ushbu sohani iqtisodiy tahlil qilib uning samaradorligini oshirishdir.

Uy xo'jaliklarida chorva mahsulotlari ishlab chiqarishdagi asosiy ishlab chiqaruvchi sifatida yuqorida sanab o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish, imtiyozli kreditlar va moliyaviy ko'mak mexanizmlarini joriy etish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu qarorlar uy xo'jaliklarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash natijasida oxir oqibatda o'z iqtisodiy samarasini berib uy xo'jaliklarining chorva mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyatini oshirishib, barqaror daromad manbalarini shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishga va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda o'z samarasini bermiqda. E'tiborli jihati shundaki oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab quvvatlash davom etayotgan bo'lsada umumiy chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishida uy xo'jaliklari ulushi oxirgi yillarda kamayib bormiqda.

Yuqoridagi malumolar asosida O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

ARIMA(1,1,1) modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$\Delta Y_t = \varphi_1 \Delta Y_{t-1} + \varepsilon_t + \theta_1 \varepsilon_{t-1}$$

bu yerda:

- Y_t – chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,
- ΔY_t – birinchi farq,
- φ_1 – avtoregressiya koeffitsienti,
- θ_1 – sirpanma o'rtacha koeffitsienti,
- ε_t – tasodifiy xatolik.

Prognoz natijalari shuni ko'rsatadiki, barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi izchil oshib boradi. Misol uchun, O'zbekiston bo'yicha umumiy ishlab chiqarish hajmi 2024-yildagi 193 998 mlrd so'mdan 2030-yilga kelib 300 000 mlrd so'mga yetadi. Bu ko'rsatkich hududlar kesimida ham o'sish sur'atining barqarorligini tasdiqlaydi, ayniqsa, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarida ishlab chiqarish hajmining tez sur'atlarda oshishi prognoz qilinmoqda.

3-jadval. Hududiy prognoz (ARIMA modeli asosida, mlrd so'm)³

Hudud	2025	2026	2027	2028	2029	2030
O'zbekiston Respublikasi	210 500	227 800	245 300	263 200	281 400	300 000
Qoraqalpog'iston R.	9 200	10 000	10 850	11 730	12 650	13 600
Andijon viloyati	16 900	18 400	19 900	21 450	23 050	24 700
Buxoro viloyati	20 100	21 900	23 700	25 600	27 500	29 500
Jizzax viloyati	17 900	19 500	21 100	22 750	24 450	26 200
Qashqadaryo viloyati	26 200	28 400	30 700	33 100	35 600	38 200
Navoiy viloyati	12 200	13 200	14 300	15 400	16 500	17 700
Namangan viloyati	12 600	13 800	15 000	16 200	17 450	18 700
Samarqand viloyati	23 200	25 100	27 100	29 200	31 400	33 700
Surxondaryo viloyati	17 200	18 700	20 300	21 950	23 650	25 400
Sirdaryo viloyati	6 100	6 650	7 200	7 800	8 450	9 100
Toshkent viloyati	18 900	20 500	22 100	23 800	25 600	27 400
Farg'ona viloyati	15 900	17 300	18 800	20 350	21 950	23 600
Xorazm viloyati	15 400	16 800	18 200	19 700	21 250	22 900
Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0



Shuningdek natijalar, Student mezon va Fisher mezonlari asosida ishonchliligi tekshirildi. Student t-mezon orqali parametrlar ahamiyati tekshirildi:

$$t = \frac{\hat{\beta}}{SE(\hat{\beta})}$$

Natijalar:

- $\varphi_1 = 0.65, t \approx 4.33 > t_{0.05} = 2.776$
- $\theta_1 = 0.58, t \approx 4.83 > 2.776$

Avtoregressiya (φ_1) va sirpanma o'rtacha (θ_1) koeffitsientlari statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlanib, t qiymatlari 4,33 va 4,83 ni tashkil etdi. Bu esa, 4 darajali erkinlik bilan $t_{0,05} = 2,776$ mezonidan yuqori bo'lib, model parametrlarining prognozlashda ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

Fisher F-mezon modelning umumiy ishonchliligi quydagi formula asosida tekshirildi:

$$F = \frac{(SSR_{reduced} - SSR_{full})/k}{SSR_{full}/(n - k - 1)}$$

Hisoblash natijasi:

$$F = 12,5 > F_{0,05} = 7,71 \rightarrow$$

Fisher F-mezon yordamida modelning umumiy ishonchliligi baholandi. F qiymati 12,5 ga teng bo'lib, $F_{0,05} \approx 7,71$ dan yuqori, demak ARIMA modeli umumiy prognozlash uchun ishonchli va qabul qilinadigan hisoblanadi.

Qoldiqlar esa oq shovqin xususiyatiga ega bo'lib, autocorrelation mavjud emas va Jarque-Bera testi natijalari qoldiqlarning normal taqsimlanganligini ko'rsatadi.

4-jadval. Moliyalashtirishning 15 % ko'paytirish evaziga ishlab chiqarish hajmining o'sish prognozi⁴

Hudud	2025	2026	2027	2028	2029	2030
O'zbekiston Respublikasi	226 288	245 085	263 698	282 510	302 005	322 500
Qoraqalpog'iston R.	9 890	10 750	11 666	12 618	13 566	14 620
Andijon viloyati	18 168	19 780	21 393	23 054	24 777	26 573
Buxoro viloyati	21 608	23 543	25 488	27 420	29 420	31 713
Jizzax viloyati	19 243	20 963	22 683	24 456	26 292	28 165
Qashqadaryo viloyati	28 165	30 530	33 003	35 583	38 270	40 965
Navoiy viloyati	13 115	14 190	15 373	16 555	17 610	18 978
Namangan viloyati	13 545	14 835	16 125	17 415	18 600	20 103
Samarqand viloyati	24 940	26 983	29 133	31 440	33 705	36 118
Surxondaryo viloyati	18 490	20 103	21 823	23 591	25 441	27 305
Sirdaryo viloyati	6 558	7 144	7 740	8 640	9 200	9 753
Toshkent viloyati	20 318	22 038	23 758	25 585	27 450	29 455
Farg'ona viloyati	17 093	18 598	20 210	21 860	23 610	25 370
Xorazm viloyati	16 555	18 060	19 565	21 415	22 844	24 568
Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0

Moliyalashtirishning ishlab chiqarish hajmiga ta'siri 15 % ssenariy orqali tahlil qilindi. Eksperimental ma'lumotlarga ko'ra, 1 % moliyalashtirish oshishi ishlab chiqarishni 0,5 % ga oshiradi. Shu asosda, moliyalashtirishni 15 % oshirish hisob-kitoblari ARIMA prognozi bilan ko'paytirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 2030 yilga kelib moliyalashtirish 15 % oshirilsa, uy xo'jaliklari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 322 500 mlrd so'mga yetadi. Ushbu ssenariy hududlar kesimida ishlab chiqarish tafovutini kamaytiradi va yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Hududiy tafovutlarni tahlil qilganda, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlari chorvachilikka ixtisoslashganligi sababli moliyalashtirishning multiplikativ ta'siri yuqori bo'lib, ishlab chiqarish hajmi boshqa hududlarga nisbatan tezroq oshadi. Shu bilan birga, Navoiy, Sirdaryo va Qoraqalpog'iston hududlarida ham ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'atini saqlab qoladi, bu uy xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, 2030-yilgacha bo'lgan prognozlar shuni ko'rsatadiki, uy xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va boshqa moliyaviy mexanizmlar chorvachilik mahsulotlari

4 Manba muallif ishlanmasi



ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Moliyaviy yordam va davlat siyosatini doimiy rivojlantirish sharoitida 2030 yilga kelib O'zbekiston uy xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqariladigan chorvachilik mahsulotlari hajmi barqaror o'sadi, hududiy tafovutlar kamayadi va umumiy iqtisodiy samaradorlik ortadi. Shu sababli uy xo'jaliklarini moliyalashtirish hajmini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish chorvachilik sohasini rivojlantirishda eng muhim strategik yo'nalish bo'lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi uy xo'jaliklari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy subyektlari sifatida iqtisodiy tizimda strategik ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 2019–2024-yillar davomida uy xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari umumiy ishlab chiqarish hajmining 87–88 % ini tashkil etgan. Bu uy xo'jaliklarini moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chorvachilik tarmog'ining barqaror rivojlanishi, aholi daromadini oshirish va bandligini ta'minlashda muhimligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, uy xo'jaliklarining ishlab chiqarish hajmi hududlar kesimida sezilarli tafovutlarga ega bo'lib, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlari yetakchi o'rinlarni egallaydi, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida esa ishlab chiqarish hajmi nisbatan pastroq bo'lib, hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash zaruratini ko'rsatadi.

Moliyalashtirish va texnologik yangilanishlar chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va lizing mexanizmlarini keng joriy etish orqali ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuningdek, naslli chorva sonini ko'paytirish, veterinariya xizmatlari sifatini yaxshilash va ishlab chiqaruvchilarning malakasini oshirish chorvachilik mahsulotlari sifatini va umumiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Prognoz natijalari barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining izchil o'sishini ko'rsatadi. 2025-yildan boshlab umumiy respublika miqyosida ishlab chiqarish hajmi 210 500 mlrd so'mdan 2030-yilda 322,5 trln so'mgacha yetishi kutilmoqda. Moliyalashtirishni 15 % oshirish ssenariysi esa ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshiradi va hududiy tafovutlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, Student t va Fisher F mezonlari yordamida model ishonchliligi tasdiqlandi, qoldiqlar oq shovqin xususiyatiga ega bo'lib, prognozlar statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko'rsatadi. Bu natijalar uy xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Uy xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va lizing mexanizmlarini joriy etish chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Veterinariya xizmatlarini rivojlantirish, chorva sog'lig'i va mahsuldorligini oshirish hamda monitoring tizimini takomillashtirish chorvachilik sohasining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uy xo'jaliklarida naslli chorva sonini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mahsuldorlikni oshirishda muhim hisoblanadi. Shuningdek, uy xo'jaliklarida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholining malakasini oshirish, trening va seminarlar orqali bilim darajasini oshirish tavsiya etiladi. Hududiy tafovutlarni kamaytirish maqsadida moliyaviy resurslarni chorvachilikka ixtisoslashgan viloyatlar va ishlab chiqarish sur'ati past bo'lgan hududlarga samarali taqsimlash zarur. Yakuniy ravishda, uy xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni doimiy monitoring qilish, ARIMA va boshqa ekonometrik modellar yordamida prognozlash tizimini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida Qarori – Tashkent, 2018. <https://lex.uz/docs/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-son "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori – Tashkent, 2021. <https://lex.uz/docs/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabr, PQ-55-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori – Tashkent, 2021. <https://lex.uz/docs/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022–2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida" Qarori – Tashkent, 2022. <https://lex.uz/docs/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dastari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori – Tashkent, 2024. <https://lex.uz/docs/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-son "Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori – Tashkent, 2025. <https://lex.uz/docs/>



7. Turoпова N. O'zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik// Iqtisodiyot va boshqaruv. – Tashkent, 2020. – №4. – B. 45–52.
8. Xasanov I.M. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari. – Tashkent: Fan, 2019. – 158 s.
9. Odilov U.A. Aholi tomorqalaridan foydalanishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbalari va amalga oshirish mexanizmlari// Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – Tashkent, 2021. – №3. – B. 34–42.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy statistika – Qishloq xo'jaligi – Tashkent, 2025.<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
